

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikramova Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TAYYOR MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TA'MINOT YO'LLARI.....	263
Esanov Yusufjon Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	267
Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	275
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MILLIY EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING MEXANIZMLARI.....	281
Jumayeva Zamira Bustonovna	
MARKAZIY OSIYO UCHUN GEOSIYOSIY RISK (GPR) INDEKSINI ISHLAB CHIQISH	285
Qodirova Laylo Otabekovna	
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	289
Elmurod Sodiqov Shomurod o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	295
Abduvaliyev Zafar Mahmudovich	
AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLAR ISHLAB CHIQARISHDA MAHALLIYLASHTIRISH VA TA'MINOT TARMOG'INI DIVERSIFIKATSIYALASH SAMARADORLIGI.....	301
Asadov Elyorbek Kandiayrovich	



INFRATUZILMA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN ZARUR OBYEKTLAR, INSTITUTLAR, RESURLAR VA XIZMATLAR MAJMU'I.....	307
Rustamov Sultonbek Bekzadovich	
TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK PARADOKSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	315
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	
"YASHIL" SANOAT SIYOSATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI.....	323
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI HISOBI VA ULARDAN FOYDALANISH USTIDAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....	330
Murtozayeva Xusnora Erkin qizi	
KORXONANING BREND EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Sa'dulloyev Habibullo Ibodullo o'g'li	
AGRAR VA SANOAT TARMOQLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	341
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING ENERGIYA TA'MINOTIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI.....	347
Jo'ramurodova Feruza Mardon qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH VA INVESTITSION STRATEGIYALARNI BOSHQARISH.....	353
Nazarova Nigora Yusufvna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING AKADEMIK FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY-TASHKILY ASOSLARI.....	361
Raximbayev Musobek Komiljon o'g'li	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISH TENDENSIYALARI, HUDUDLARARO FISKAL TAFOVUTLAR VA HUDUDIY SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MUAMMALARINING TIZIMLI TAHLILI.....	367
Azamjonov Ulug'bek Usmonjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINING EVOLYUTSION RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI.....	377
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINING EVOLYUTSION RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

Erxanov Muxammadjon Absayitovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining 1998-yildan 2026-yilgacha bo'lgan evolyutsion rivojlanishi uchta mezon — subyektni soddalashtirilgan rejimga o'tkazish mezoni, chegara ko'rsatkichi va soliq stavkasining tuzilishi — asosida davriylashtirilib, beshta bosqich doirasida tahlil qilingan. Taxminiy soliqqa tortish nazariyasi va “bunching” effekti doirasida 2026-yilgi soliq islohotining nazariy asoslari yoritilgan hamda chegara ko'rsatkichlari bo'yicha xalqaro qiyosiy tahlil amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, soddalashtirilgan soliqqa tortish, taxminiy soliqqa tortish, “bunching” effekti, chegara ko'rsatkichi, aylanmadan olinadigan soliq, tashkiliy-huquqiy shakl xavfi.

Аннотация. Эволюционное развитие системы упрощенного налогообложения субъектов малого бизнеса в Узбекистане в период с 1998-го по 2026-й год проанализировано на основе трех критериев: критерия перехода субъекта на упрощенный режим, порогового показателя и структуры налоговой ставки. На этой основе выделено пять этапов развития системы. В рамках теории презумптивного налогообложения и эффекта «бунчинга» раскрыты теоретические основы налоговой реформы 2026-го года, а также проведен международный сравнительный анализ пороговых показателей.

Ключевые слова: малый бизнес, упрощенное налогообложение, презумптивное налогообложение, эффект «бунчинга», пороговый показатель, налог с оборота, риск организационно-правовой формы.

Abstract. The evolutionary development of the simplified taxation system for small business entities in Uzbekistan from 1998 to 2026 is analyzed using three criteria: the eligibility criterion for transition to the simplified regime, the threshold indicator, and the structure of the tax rate. Based on these criteria, five stages in the development of the system are identified. Within the framework of presumptive taxation theory and the bunching effect, the theoretical foundations of the 2026 tax reform are examined, and an international comparative analysis of threshold indicators is conducted.

Keywords: small business, simplified taxation, presumptive taxation, bunching effect, threshold indicator, turnover tax, legal-form risk.

KIRISH

Kichik biznes subyektlarini samarali soliqqa tortish mexanizmini shakllantirish nafaqat budjet daromadlarini shakllantirish, balki tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda mazkur tizim 1998-yildan boshlab bugungi kunga qadar izchil evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Joriy 2026-yilgi islohotning mohiyati va uning uzoq muddatli samaradorligini ilmiy baholash uchun avvalgi bosqichlarda shakllangan institutsional asoslarni hamda ularning o'zaro ta'sirini tizimli ravishda o'rganish zarur. Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining rivojlanish bosqichlarini aniqlash, ularning nazariy asoslarini ochib berish hamda 2026-yilgi islohotni xalqaro tajriba asosida baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarini soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortishning nazariy asoslarini yoritishda xorijiy tadqiqotchilarning ishlari muhim ahamiyatga ega. V. Tanzi va M. Kazanegra de Yancherning fikricha, “taxminiy soliqqa tortish usuli soliq bazasini haqiqiy daromad emas, balki bilvosita ko'rsatkichlar asosida aniqlash orqali



soliq ma'murchiligi xarajatlarini kamaytiradi, biroq bunda samaradorlik va adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimdir" [1]. Ushbu nazariya keyinchalik XVF mutaxassisi J.-F. Ven tomonidan tizimlashtirilib, aylanmadan olinadigan soliq rejimini loyihalashda uchta asosiy element — subyektlarni tizimga kiritish mezon, chegara ko'rsatkichi va soliq stavkasi — uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqilishi zarurligi asoslangan [2].

Ma'muriy soddalashtirishning nazariy asoslarini K. Sendford va hammualliflari ishlab chiqqan bo'lib, ularning ta'kidlashicha, "kichik tadbirkorlik subyektlari uchun bir nechta alohida hisob-kitob va to'lov muddatlarini bittaga birlashtirish orqali ularning xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin, biroq bu chora o'z-o'zidan soliq yukining umumiy darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi" [3]. Mazkur xulosa O'zbekistondagi 2005-yilgi yagona soliq to'lovi islohotining nazariy izohi sifatida xizmat qilgan.

Chegara kesimidagi soliq majburiyatining uzilishi muammosini R. Kanbur va M. Kin nazariy jihatdan asoslab, "qat'iy chegara atrofida firmalarning sun'iy to'planishi (bunching) yuzaga kelishi mumkin bo'lib, optimal chegara darajasi komplaens to'liq bo'lganda belgilanadigan darajadan yuqoriroq bo'lishi lozim" [4], deb hisoblaydilar. E. Saezning bunching hodisasini empirik baholash uslubi [5] keyinchalik U. Bunzaayer va hammualliflari tomonidan Janubiy Afrika misolida [6], K. Choudxari va B. Gupta tomonidan esa Hindiston misolida [7] qo'llanilib, kichik biznes subyektlarining chegara atrofidagi xatti-harakati empirik jihatdan tasdiqlangan. Buyuk Britaniya QQS tizimi misolida L. Liu va B. Lokvud tomonidan o'tkazilgan tadqiqot [8], shuningdek, Germaniya misolidagi tadqiqot [9] bunday chegaraning rivojlangan institutsional muhitda ham samarali boshqarilishi zarurligini ko'rsatadi.

U. Suy va hammualliflarining Xitoy sanoat korxonalari misolida o'tkazilgan yirik empirik tadqiqotida "kichik korxonalarga nisbatan soliq stavkasining pasaytirilishi ularning investitsiya salohiyatigagina emas, balki tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish strategiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi" [10], deb ta'kidlangan. Ushbu xulosa O'zbekiston sharoitida YaTT va mikrofirmalar o'rtasidagi to'rt baravar stavka farqining oqibatlarini baholashda nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida davriylashtirish, tizimli tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan. Davriylashtirish mezon sifatida uchta ko'rsatkichning bir vaqtda o'zgarishi olingan: soliq to'lovchini soddalashtirilgan rejimga o'tkazish mezon (xodimlar soni yoki aylanma hajmi), chegara ko'rsatkichi va uni hisoblash usuli, soliq stavkasining tuzilishi (tabaqalashgan yoki unifikatsiyalashgan).

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu mezonlar asosida kichik biznes subyektlarini soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining rivojlanishini beshta bosqichga ajratish mumkin.

I bosqich (1998–2005-yillar) — soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga ixtiyoriy o'tish davri. Uning institutsional asosini Prezidentning 1998-yil 9-apreldagi PF-1987-son Farmoni (xodimlarning o'rtacha yillik soni mezon asosida kichik biznes subyektlarini aniqlash tizimini joriy etgan) hamda Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-son qarori (amaliy soliqqa tortish mexanizmini belgilovchi) tashkil etadi. Mazkur bosqichning eng muhim xususiyati kichik korxonalarga yagona soliq yoki umumbelgilangan tartibda soliq to'lashni mustaqil tanlash huquqi berilgan ixtiyoriylik prinsipi edi.

II bosqich (2005–2019-yillar) — ma'muriy konsolidatsiya davri. Prezidentning 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-son Farmoni bilan 2005-yil 1-iyuldan to'rtta alohida majburiy to'lov (yagona soliq, Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga ajratmalar) bittaga birlashtirilib, yagona soliq to'lovi joriy etildi. Ushbu davr mobaynida stavka izchil pasaytirib borildi (2006-yilda 13 foizdan 2012-yilda 5 foizgacha, 2018-yilda 4 foizgacha). Shu bilan birga, subyektni soddalashtirilgan rejimga kiritish mezon xodimlar soniga asoslangan holda o'zgarmay qoldi.

III bosqich (2019–2022-yillar) — taxminiy soliqqa tortishning rasmiy shakllanishi. Prezidentning 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son Farmoni asosida 2019-yil 1-yanvardan subyektni soddalashtirilgan rejimga kiritish mezon sifatida birinchi marta yillik oborot (1 milliard so'm) chegarasi rasman joriy etildi, "aylanmadan olinadigan soliq" atamasi esa "yagona soliq to'lovi" terminini almashtira boshladi. Ushbu davr taxminiy soliqqa tortish nazariyasining uchta asosiy elementi — mezon, chegara va stavka — birinchi marta O'zbekiston qonunchiligida yaxlit shakllangan davr hisoblanadi. Bunda 1 milliard so'mlik chegara qat'iy miqdorda belgilangan edi.

IV bosqich (2022–2026-yillar) — o'tish davrini yumshatish tajribasining boshlanishi. 2022-yil 30-avgustdagi PQ-364-son qarori va uni mustahkamlovchi 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-son Qonuni bilan ilk marotaba aylanmadan olinadigan soliqdan foyda solig'iga o'tgan to'lovchilar uchun (jami daromadi 10 milliard so'mdan



oshmasa) bir soliq davri davomida foyda solig'i stavkasini 50 foizga pasaytirish huquqi joriy etildi. Bu 2026-yilgi yumshatish choralarining konseptual asosi hisoblanadi: agar 2026-yilda chegaradan oshganlarga bir yillik to'liq imtiyoz berilgan bo'lsa, 2022-yilda mazkur mexanizm qisman — 50 foizli pasaytirish shaklida — sinab ko'rilgan edi. Shuningdek, 2023-yil 1-yanvardan aylanmadan olinadigan soliq stavkalari barcha toifalar uchun yagona 4 foiz miqdorida unifikatsiya qilindi.

V bosqich (2026-yil — hozirgi davr) — tabaqalashtirilgan chegara va tizimli yumshatish mexanizmi. Prezidentning 2026-yil 26-maydagi PF-100-son Farmoni bilan boshlangan mazkur bosqichning o'ziga xos xususiyati chegara ko'rsatkichining qat'iy so'm miqdoridan bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ga bog'lab belgilanishi, shuningdek, 50 foizli qisman imtiyoz o'niga to'liq (100 foizli) bir yillik foyda solig'idan ozod qilishning joriy etilishi hamda yagona 4 foizlik stavkaning tashkiliy-huquqiy shakl mezoni bo'yicha qayta tabaqalashtirilishi (YaTT uchun 1 foiz, yuridik shaxs shaklidagi mikrofirmalar/kichik korxona uchun 4 foiz)dir. Ushbu bosqichlarning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning rivojlanish bosqichlarining qiyosiy tavsifi

Bosqich	Davriy oraliq	Huquqiy hujjat	Subyektning aniqlash mezonlari	Stavka	Ustuvor xususiyati
I	1998–2005	VM 159-son (15.04.1998)	Xodimlar soni (PF-1987)	Tabaqalashtirilgan (tarmoq bo'yicha)	Ixtiyoriylik
II	2005–2019	PF-3620-son (20.06.2005)	Xodimlar soni	13% (2006) → 5% (2012) → 4% (2018)	Ma'muriy konsolidatsiya (4 ta to'lov → 1 ta)
III	2019–2022	PF-5468-son (29.06.2018)	Yillik oborot (1 mlrd so'm)	4% (unifikatsiyalashmagan)	Taxminiy soliqqa tortishning rasmiylashuvi
IV	2022–2026	PQ-364, O'RQ-812 (2022)	Yillik oborot (1 mlrd so'm)	4% (unifikatsiyalashgan, 2023)	O'tish davrini yumshatish tajribasi (50% imtiyoz)
V	2026-yil — hozirgi davr	PF-100-son (26.05.2026)	Yillik oborot (4,9 mlrd so'm)	1% (YaTT) / 4% (MF, KK)	Tabaqalashtirilgan chegara + tizimli yumshatish

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, V bosqich o'zidan oldingi to'rt bosqichning sintezi sifatida qaralishi mumkin: u I bosqichning ixtiyoriylik ruhini (ixtiyoriy soddalashtirilgan QQS tartibi orqali), II bosqichning ma'muriy soddalashtirish yo'nalishini (ikki baravar ko'paytirilgan buxgalteriya xarajatlari chegirmasi orqali), III bosqichda shakllangan taxminiy soliqqa tortish uslubiyatini va IV bosqichda sinalgan chegarani yumshatish tajribasini o'zida mujassamlashtirgan. Shu bilan birga, bunching nazariyasi nuqtai nazaridan mazkur choralarni doimiy asosdagi marjinal o'tish mexanizmlari bilan yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soliq majburiyatlari ularni aniqlash mezonlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, jami yillik daromadlaridan kelib chiqib belgilanadi (2-jadval). 2026-yil 1-iyundan boshlab soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o'tish uchun belgilangan chegaraviy miqdor bazaviy hisoblash miqdorining o'n ikki ming baravari etib belgilangan bo'lib, ayni vaqtda mazkur summa 5 280 000 000 (440 × 12 000) so'mni tashkil etadi.

2-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tartibi

Realizatsiya tushumlari miqdori	Soliq turi	Soliq stavkasi	Soliqlarni to'lash tartibi
BHMning o'n ikki ming baravarigacha (YaTT)	Aylanmadan olinadigan soliq	1 foiz	Aylanmadan olinadigan soliqni to'laydi (yoki ixtiyoriy ravishda QQS va foyda solig'ini to'lashga o'tishi mumkin)
BHMning o'n ikki ming baravarigacha (mikrofirmalar, kichik korxona)	Aylanmadan olinadigan soliq	4 foiz	Aylanmadan olinadigan soliqni to'laydi
BHMning o'n ikki ming baravaridan yuqori (YaTT, MF, KK)	Qo'shilgan qiymat solig'i	12 foiz	QQS va foyda solig'ini to'laydi (bunda foyda solig'ini soddalashtirilgan tartibda to'lashni tanlashi mumkin)
	Foyda solig'i	15 foiz	

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish tartibi realizatsiya



tushumi miqdoriga qarab tabaqalashtirilgan bo'lib, tushumi 5,2 milliard so'mdan yuqori bo'lgan subyektlar uchun QQS va foyda solig'ini to'lash tartibining joriy etilishi biznes faoliyati kengaygan sari umumiy soliq tizimiga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlaydi.

2026-yilgi islohotning huquqiy-texnik jihatdan muhim tomoni shundaki, unda bunching muammosini yumshatishga alohida e'tibor qaratilgan: chegara dastlab 2019-yil 1-yanvardan 1 milliard so'm miqdorida belgilanib, kamida har uch yilda qayta ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan edi. Mazkur chegaraning keyingi davrda qayta ko'rib chiqilishi uning real, ya'ni inflyatsiyaga moslashtirilgan qiymatini saqlab borish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini to'liq va shaffof aks ettirishga rag'batlantiruvchi shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, BHMning 12 ming baravarigacha bo'lgan aylanmaga ega subyektlar ichida ham aylanmadan olinadigan soliq stavkasi bir xil emas: YaTT uchun 1 foiz, mikrofirma va kichik korxonalar uchun esa 4 foiz miqdorida belgilangan. Mazkur to'rt baravar farq jismoniy shaxs tadbirkorligini rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, tashkiliy-huquqiy shakllar o'rtasidagi iqtisodiy rag'batlarning o'zaro muvofiqligini muntazam baholab borishni taqozo etadi. O'zbekistonda 2025-yildan joriy etilgan "o'zini o'zi band qilgan shaxs – YaTT – kichik biznes – o'rta biznes – yirik korxona" zanjiri asosidagi yiriklashuvni rag'batlantirish mexanizmi amalda mazkur masalani tartibga solishga yo'naltirilgan kompleks chora sifatida baholanishi mumkin.

Taxminiy soliqqa tortish nazariyasining markaziy masalalaridan biri chegara kesimidagi soliq majburiyatining o'zgarishidir: 4 944 000 000 so'mlik chegaradan bir so'm ortiq tushum olgan subyekt aylanmadan olinadigan soliqdan chiqib, QQS (12 foiz) va foyda solig'i (15 foiz) to'lash majburiyatiga o'tadi. 2026-yilgi islohot doirasida mazkur masalani tartibga solishga alohida e'tibor qaratilgan. Chegarani yumshatuvchi uchta mexanizm joriy etilgan: birinchidan, 2026-yil 1-iyundan 2030-yil 1-yanvargacha umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi subyektlarga ixtiyoriy soddalashtirilgan (6 foizlik hisoblash stavkasiga asoslangan) QQS tartibini tanlash huquqi berilgan; ikkinchidan, birinchi marta aylanmadan olinadigan soliqdan QQS va foyda solig'iga o'tgan subyektlar bir yil muddatga foyda solig'idan ozod etiladi; uchinchidan, buxgalteriya va soliq maslahati xizmatlariga ketgan xarajatlarni ikki baravar ko'paytirilgan miqdorda chegirish imkoniyati joriy etilgan.

Markaziy bankning rasmiy almashuv kursi asosida (2026-yil sentyabr holatiga taxminan 1 AQSh dollari = 12 000 so'm) hisoblaganda, O'zbekistondagi 5 280 000 000 so'mlik chegara taxminan 440 000 AQSh dollariga teng keladi (3-jadval).

3-jadval
Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibiga o'tish chegarasining solishtirma tahlili

Mamlakat	Soddalashtirilgan rejimdan umumiy rejimga o'tish chegarasi	Chegara miqdori (milliy valyutada)	AQSh dollari ekvivalentida
O'zbekiston	Aylanmadan olinadigan soliqdan QQS + foyda solig'iga o'tish	5 280 000 000 so'm (12 000 × BHM)	≈ 440 000 \$
Xitoy	SLPE imtiyozli rejimi	3 000 000 yuan	≈ 410 000 \$
AQSh	QBI (199A) chegirmasining boshlanishi	~400 000 \$ (qo'shma arizachilar)	≈ 400 000 \$
Rossiya	USN/PSN bo'yicha QQSdan ozod qilingan (2026-y.)	20 000 000 rubl	≈ 210 000–250 000 \$
Fransiya	Tovar savdosi	188 700 yevro	≈ 205 000 \$
Germaniya	Kleinunternehmerregelung	100 000 yevro	≈ 108 000 \$
Buyuk Britaniya	QQS ro'yxatidan o'tish	90 000 funt	≈ 115 000 \$
Qozog'iston	Soddalashtirilgan deklaratsiya asosidagi XSR	~2,6 mlrd tenge	≈ 4 800 000 \$

3-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi yangi chegara (~440 ming dollar) Yevropa davlatlari (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya) ko'rsatkichlaridan 2–5 baravar yuqori, biroq Xitoydagi SLPE rejimi va AQShdagi QBI chegirmasining boshlanish nuqtasi bilan deyarli bir xil darajada. Shu bilan birga, O'zbekistondagi chegara Rossiyaning 2026-yilgi islohotdan keyingi pasaytirilgan chegarasidan ikki baravar yuqori bo'lsa, Qozog'istonning yangi yagona soddalashtirilgan rejimi uchun belgilangan chegaradan ancha past. Mazkur taqqoslash O'zbekistonda 2026-yilgi islohot orqali kichik biznesni rag'batlantirish mexanizmlari xalqaro amaliyotdagi turli yondashuvlar, jumladan, Xitoy va AQSh tajribasiga yaqin ko'rsatkichlar asosida shakllantirilganini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin.

Birinchidan, 2026-yilgi soliq islohoti nazariy tadqiqotlarda tavsiflangan "bunching" muammosini yumshatishga qaratilgan mexanizmlarning O'zbekiston amaliyotida ham izchil rivojlantirilganini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv soliq tizimini tadbirkorlik faoliyatining o'sish sur'atlariga moslashtirish va soddalashtirilgan rejimdan umumiy soliqqa tortish tizimiga o'tishni yanada qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, chegaraning bazaviy hisoblash miqdoriga bog'lab belgilanishi qat'iy so'm miqdoridan farqli ravishda nazariy jihatdan asoslangan qaror hisoblanadi, chunki bu chegaraning iqtisodiy sharoitlar va narxlar dinamikasiga mutanosib ravishda yangilanib borishiga imkon yaratadi.

Uchinchidan, chegara kesimidagi o'tish jarayonini yumshatish uchun joriy etilgan choralar ijobiy yo'nalishga ega bo'lib, ularni kelgusida doimiy asosdagi marjinal o'tish mexanizmlari bilan yanada rivojlantirish imkoniyatlarini chuqur tadqiq etish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, YaTT va mikrofirma/kichik korxona o'rtasidagi to'rt baravar stavka farqi iqtisodiy rag'batlantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur toifalar o'rtasidagi o'zgarish dinamikasini, ayniqsa, chegara atrofidagi jarayonlarni Soliq qo'mitasi tomonidan muntazam monitoring qilib borish soliq mexanizmlarining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, xalqaro taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi yangi chegara ko'rsatkichi jahon amaliyotida o'rtacha-yuqori darajada joylashgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichni iqtisodiy sharoitlar dinamikasiga muvofiq ravishda o'z vaqtida qayta ko'rib borish uning samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish tizimining rivojlanishi ularni qo'llab-quvvatlash, yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishni rag'batlantirish hamda biznesning o'sishiga qarab soliq tizimiga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan samarali iqtisodiy mexanizm ekanini ko'rsatadi. Kelgusida doimiy asosdagi marjinal o'tish mexanizmini joriy etish hamda YaTT va yuridik shaxs shaklidagi subyektlar o'rtasidagi stavka farqi oqibatlarini empirik baholash ustuvor tadqiqot yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tanzi V., Casanegra de Jantscher M. Presumptive Income Taxation: Administrative, Efficiency, and Equity Aspects. — IMF Working Paper No. 87/54. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 1987.
2. Wen J.-F. How to Design a Presumptive Income Tax for Micro and Small Enterprises. — IMF How To Notes 2023/002. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2023.
3. Sandford C., Godwin M., Hardwick P. Administrative and Compliance Costs of Taxation. — Bath: Fiscal Publications, 1989.
4. Kanbur R., Keen M. Thresholds, Informality, and Partitions of Compliance // International Tax and Public Finance. — 2014. — Vol. 21, No. 4. — P. 536–559.
5. Saez E. Do Taxpayers Bunch at Kink Points? // American Economic Journal: Economic Policy. — 2010. — Vol. 2, No. 3. — P. 180–212.
6. Boonzaaier W., Harju J., Matikka T., Pirttilä J. How Do Small Firms Respond to Tax Schedule Discontinuities? Evidence from South African Tax Registers // International Tax and Public Finance. — 2019.
7. Choudhary K., Gupta B. Dynamics of Firm Growth around Tax Thresholds: Evidence from India. — Max Planck Institute for Tax Law and Public Finance Working Paper No. 2024-05.
8. Liu L., Lockwood B. VAT Notches. — CEPR Discussion Paper No. 10606, 2015.
9. Threshold-dependent tax enforcement and the size distribution of firms: evidence from Germany // International Tax and Public Finance. — 2022.
10. Cui W., Wei M., Xie W., Xing J. Corporate Tax Cuts for Small Firms: What Do Firms Do? // Journal of Corporate Finance. — 2025. — Vol. 91, Art. 102709.
11. Thuronyi V. (ed.) Tax Law Design and Drafting. Volume 1, Chapter 12: Presumptive Taxation. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 1996.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi PF-1987-son Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-son Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-son Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 avgustdagi PQ-364-son qarori; O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O'RQ-812-son Qonuni.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 26 maydagi PF-100-son Farmoni.
18. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, <https://lex.uz/docs/4674902>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>